



ZAMONAVIY HAYOTDA RAQAMLI QURILMALARDAN TO'G'RI FOYDALANISH TEXNOLOGIYALARI.

Raximbayev Musobek Komiljon o'g'li

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti
2- kurs talabasi

To'xtaboyev Javlonbek Ixtiyor o'g'li

javlonbektokhtabaev@gmail.com
+998998195139

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7952327>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 13-May 2023 yil

Ma'qullandi: 16-May 2023 yil

Nashr qilindi: 20-May 2023 yil

KEY WORDS

zamonaviy qurilmalar, maishiy texnika, mutaxassislar, texnika vositasi, to'g'ri foydalanish, elektr, shovqin darajasi, muzlatgich, havo tozalash, sovutish jihozlari, oshxona jihozlari, avtomatik boshqaruv, sezuvchanlik.

ABSTRACT

Zamonaviy texnologiyalardan to'g'ri foydalanish qo'llanma, uskunalar ishlashini optimallashtirish asnosida moddiy tejamkorlik, sog'liq bilan bog'liq muammolar kelib chiqmasligini ta'minlash.

Texnologik yutuq insoniyatga hayot sifatini sezilarli darajada yaxshilaydigan ko'plab funktsional uy jihozlarini berdi. Uy jihozlarini ishlab chiqarish avtomatlashgan, bugungi kunda ulardan foydalanish keng tus olgan. Korxonalar, texnoparklar ularni kuniga katta miqdorda ishlab chiqarmoqda, yildan yilga ishlab chiqarish jarayonida inson omili kamayib, avtomotlashmoqda. Qurilmalar katta aniqlikda, qulayroq, ixchamroq, yorqin dizayn, sifatli xom ashyo, xarajatlar kamayishi, vaqt tejilishi kabi afzalliklarga ega bo'lib bormoqda. Maishiy texnikalar "yetib bormagan" joyni o'zi yo'q. Oshxonadan tortib, omborxonagacha. Hattoki, nafaqat bino-inshoat yoki ochiq hududlarda, balki transport vositalarida ham o'z o'rnini egallaganlar. Zamonaviy odam ulardan foydalanishdan bosh torta olmaydi, chunki ular nafaqat bizning hayotimizni osonlashtiradi, balki qulaylashtiradi.

Texnikangiz uzoq vaqt davomida xizmat qilishini istasangiz, undan foydalanish qoidalariga rioya qilish kifoya. Birinchi navbatda, uskunalar ilova qilingan yo'riqnomalarni diqqat bilan to'lig'icha o'qib chiqing. Ularda har bitta buyumni parvarish qilish va undan foydalanish bo'yicha barcha ma'lumotlar keltirilgan. Statistika ko'ra, yo'riqnomada yozilgan kabi uskunadan foydalanish qoidalariga rioya qilinganida, texnikaning buzilib qolishi bilan bog'liq holatlarning 95 foizi yuz bermagan bo'lardi. Qurilmalarni o'rnatish ham ko'pincha xatolikka yo'l qo'yiladigan holatlardan biridir. Texnika tekis yuzaga o'rnatilganiga ahamiyat bering: hatto juda kichik og'ish burchagi bo'lsa ham, uskuna buzilishi mumkin. Tangani ikki tarafi bo'lgani kabi, ularni havfsiz, mutlaqo zararsiz deb aytolmaymiz. Odatda maishiy texnikalar kichik maishiy, katta maishiy texnikalar va elektronika texnikalariga

ajratish mumkin. Ya'ni, elektr choynak, elektr pechka, gaz plita, elektr plita, toster, muzlatgich, konditsioner, changyutgich, blender, isitish qozoni, mikro to'lqinli pech, shamollatgich, multivarka, sharbat tayyorlagich, elekt go'sht maydalagich, televizor, video, magnitafon va h.k.lar. Quyida bir nechta maishiy texnikalarni ishlatish qoidalari, zarar va foydali taraflari, tejamkorlik nuqtai nazaridan maslahatlar bilan o'rtoqlashaman. Albatta, bunda ilmiy isbotlangan, mutaxassislar fikrlari va tavsiyalari va shaxsiy tajribalarimdan kelib chiqaman.

Mutaxassislar maishiy texnika vositalarini qay holatlarda zarar yetkazishlariga qarab bir nechta "top reyting"lar tuzishgan, biz esa imkon qadar issiq kunlar boshlanishini inobatga olib sovutish texnikalarini va kattaroq maishiy texnikalarni keltirib o'tamiz.

Muzlatgich - oshxonaning ko'rki, insoniyat tarixidagi juda foydali ixtiro. U sabab biz oziq ovqatni tejash, saqlash kabi afzalliklarni bajaramiz. Ammo, ishlatish qoidalariga rioya qilmaslik orqali bir qancha ko'ngilsiz holatlarni keltirib chiqarishimiz mumkin. Avvalo, unda saqlanadigan maxsulotlarni saqlash muddatini, joylashtirish tartibini e'tiborga olmaymiz. Bunda maxsulot mazasini, sifatini yo'qotishi kuzatiladi. Maxsulotlar turiga qarab saqlash bo'lmalari mavjud. Muzlatgichni «o'ldiradigan» holatlardan ichiga issiq mahsulot qo'yish, devorlariga pichoq va yot jismlar tekkazish, eshikini yaxshi yopmaslik, ortiqcha maxsulot joylashtirish, quyosh nuri tik tushadigan, gaz plita va o'zidan issiqlik chiqaradigan jismlarga yaqin qo'yish, uni joylashtirishda havo aylanish imkoni yo'q joylarga, ya'ni 3 yoki 4 tomonidan ham minimal oraliq qoldirmaslik oqibatlarida buzilish ehtimolini va elektr energiyasini sarfini oshirib yuborish kabi oqibatlarga olib kelishini guvohi bo'lishimiz mumkin. Gigienik jihatdan muzlatgich o'zida eng ko'p mikrop va bakteriya saqlaydigan jihozdir. Uni ich qismini tozalash tartibi olib borish maqsadga muvofiqdir, bunda uni tokdan uzgan holatda bir necha soat davomida eshiklari ochiq holatda, barcha maxsulotlar olinib, ich qismi xona haroratiga moslangandan keyin tozalash vositalari bilan ehtiyotkorlik bilan tozalash mumkin (yot, qattiq jismlar ishlatish mumkin emas). Bunda limon, soda va maxsus tozalash vositalarini ishlatishingiz mumkin. Jarayon tugagach quruq holatda, qayta ishga tushurishingiz mumkin. Shunisi ahamiyatliki, muzlatgich ko'chirish holatida, joyidan qimirlatish holatlarida 1-2 soatsiz qayta ishga tushirish tavsiya etilmaydi.

Kir yuvish mashinasi - ajoyib qurilma. Odatda bularni avtomat, yarim avtomat va oddiy turlari mavjud. Bugungi kunda avtomat turi keng tarqalgan. Uni ishlatishning bir nechta qoidalari mavjud: me'yorda ko'rsatilgandan ortiq kir solmaslik, ishlatish jarayonida ustida yuk qoldirmaslik, tekis joyga joylash (ostida turgan joy baquvvat bo'lishi kerak, yo'qsa ishlash jarayonida noxush holatlarga sabab bo'ladi). Ichiga suv kelishi va ichidan suv chiqishi me'yorda bo'lishi kerak. Ichida yuvilayotgan kir matoxlarning kissalarida tanga, igna, mix, ayollar to'vnag'ichlari, tugma, gugurt cho'plari, tish tozalich va shu kabi yot elementlar yo'qligiga ishonch hosil qilish tavsiya etiladi. Yo'qsa, keyinchalik ichidan suv chiqishi uchun javobgar qurilmalar nosoz holatga kelib qoladi. Va yuvilgan kiyimlarda dog'lar paydo bo'lishi va qurilmani o'zidan qo'lansa hid kelishi kabi oqibatlarga olib keladi.

Changyutgich - bu «raqamli supurgi». Hozirgi kunda ularni qurulishda (maxsus), uy va buyumlarni tozalashda ishlatishadi. Ishlatish jarayoni qisqa, ya'ni 15-20 daqiqadan ortiq uzluksiz ishlatish tavsiya etilmaydi. Shovqinli qurilma. Hozirda xona tozalashda changishni oldini olish uchun suvli modellari ommalashmoqda. Havo tortish orqali axlatni qopcha yoki idishchasida saqlab qoladi. Bir nechta filtrlari mavjud bo'lib, ularni tozalab turish kerak. Yo'qsa maksimal natija ko'rsatmaydi. Suv, ho'l buyumlarni ichkariga kirishiga yo'l qo'ymaslik

kerak. Hozirgi kunda «robot changyutgich»lar mavjud, ular inson omilisiz o'zlari mustaqil harakat qilishlari mumkin (tom ma'noda), ular maxsus dasturlangan, va bir nechta sezgi datchiklari bilan jihozlangan. Changyutgichni tozalash uchun niqob taqib olishni tavsiya qilaman, sababi unda to'planib qolgan chang miqdori ko'pligi bois «allergen» kasalliklarni chaqirishi yoki qo'zg'ab yuborishi mumkin. Bu qurilma, kuchli elektromagnit maydonga qo'shimcha ravishda, yuqori dispersiya xususiyatlariga ega. Chang zarralarini iste'mol qilganda, u ularni 0,2 mikrongacha zarrachalarga aylantira oladi va keyin ularni havoga qaytaradi.

Mikroto'lqinli pech - jihozni to'xtatuvchi maxsus tugma mavjud, lekin foydalanuvchilar ko'pincha uni e'tiborsiz qoldiradilar. Ko'pchilik qurilma ishlayotgan paytda eshikni ochadi va shu bilan jarayonni to'xtatadi. Bunday foydalanish texnikaning muddatidan oldin ishdan chiqishiga olib kelishi mumkin. Mikroto'lqinli pechning ruxsat etilgan og'irligini hisobga olmaslik. Har bir mikroto'lqinli pechda jihozga joylashtirilishi mumkin bo'lgan og'irlik chegarasi mavjud. Ushbu chegaradan oshib ketish muammolarga va qurilmaning erta buzilishiga olib kelishi mumkin, shuning uchun ko'rsatmalarni diqqat bilan o'rganib chiqish kerak. Hech qachon bo'sh mikroto'lqinli pechni yoqib ishlatmang — elektromagnit to'lqinlarini ishlab chiqaruvchi qurilma uchun bu halokatlidir.

Konditsioner - qulaylik yaratishda tenggi yo'q qurilma. Tejamkorlik. Invertorli konditsionerlar 30-40 foiz kam elektr energiyasini iste'mol qiladi. Belgilangan haroratga tez chiqishi. Mikroprotessor nazorati tufayli tizim avtomatik ravishda sovitish/isitishning optimal darajasini tanlaydi, bu esa kerakli parametrlarga, invertor bo'lmagan tizimlarga qaraganda 2 baravar tezroq erishish imkonini beradi. Kerakli haroratni aniq saqlash. Cheksiz o'zgaruvchan kompressor quvvatini boshqarish belgilangan haroratni 0,5 °C aniqlikda saqlashga imkon beradi.

Kam shovqin darajasi. Qishda samarali isitish. Ba'zi taniqli ishlab chiqaruvchilarning invertor modellari xizmat ko'rsatiladigan xonalarda issiqlikni -30 gacha bo'lgan tashqi haroratda ushlab turishga qodir va isitish samaradorligi har qanday elektr isitkich bilan taqqoslaganda kattaroqdir. Konditsionerning quvvati. Quvvat xonaning kvadrati asosida tanlanadi. Umumiy qabul qilingan hisob-kitoblarga ko'ra, 10 kvadrat metr uchun 1 kVt quvvatliligi to'g'ri keladi. Ya'ni 10 kvadrat metr uchun mos ravishda 1 kVt, 25 kvadrat metr 2,5 kVt quvvatga ega. Joylashuv ham munozaraning muhim jihati hisoblanadi. Oqimlarni to'shakka yoki odamlarga yo'naltirish kerak emas (turli kasalliklardan saqlanish uchun). Yoz issig'ida konditsioner ostida jon saqlaydiganlar o'z salomatliklariga e'tibor berishlari lozim. Konditsionerdan qanday to'g'ri foydalanish kerakligi va doimiy ravishda uning ostida o'tirish qaysi kasalliklarga olib kelishi haqida tibbiyot fanlari nomzodlari ma'lumot berganlar.

Tibbiyot fanlari nomzodi E'zozbek Rizayevning Sog'liqni saqlash vazirligiga bergan intervyusida ta'kidlashicha, yozgi shamollashlarga ko'pincha odamning o'zi sababchi bo'ladi. Masalan, tashqarida issiq havoda terlab, so'ng muzdek, konditsionerli xonaga kirib olinadi. Konditsionerdan chiqayotgan sovuq havo oqimi esa tananing yallig'lanishiga sabab bo'ladi. Mutaxassisning ta'kidlashicha, konditsionerdan foydalanayotganlar issiq kunlarda ko'cha bilan uy ichidagi haroratning farqi 4-5 va 7-10 darajadan oshmasligiga e'tibor berishlari kerak. Konditsionerdan muntazam foydalanadigan uy bekalari va ofis xodimlari quyidagilarni bilib olishlari kerak: Konditsioner havo filtrlari tozalanishi kerak. Konditsioner feni o'zidan xonadagi havoni aylantirishi natijasida havo tarkibida bo'lgan barcha changlar va kasallik

tarqatuvchi mikroblar filtrda qolib ketadi va havo tozalanadi. Agarda filtrlar o'z vaqtida tozalanmasa ular to'ladi va xavo tozalanish o'rniga ifloslanadi hamda o'tkir virusli va o'tkir respirator kasalliklarning sababchisi bo'ladi. Doimo sovuq havo oqimini his etish immunitet pasayishiga olib keladi. Buning natijasida kishi tez-tez shamollaydi. Konditsioner xona havosini bir necha marotaba qayta-qayta sovutadi va quritadi. Havo kislorod bilan to'yinmaydi. Bu esa salomatlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi. Xonani tabiiy shamollatib turish kerak. Konditsionerli xonada muntazam o'tirib ishlaydigan xodimlar ust kiyimlariga ham e'tibor berishlari kerak. Ularning kiyimlari tabiiy matodan, o'ziga namlikni yengil singdira oladigan bo'lgani ma'qul. Og'ir pnevmoniya kasalligini keltirib chiqaradigan mikroblar ham turli sovutish vositalarini yaxshi ko'radi. Shunday ekan, konditsioner zararsiz ishlashi uchun uning tozaligiga ham e'tibor bering. Har uch xaftada changyutgich yordamida konditsionerni tozalang yoki suvda yuvib turing. Shu kabi tavsiyalarga amal qilgandagina u sizning salomatligingizga ziyon yetkazmaydi. Kislorod konsentratsiyasi kamayadi, bu tanamizning umumiy holatiga salbiy ta'sir qiladi, burunning shilliq qavati azoblanadi. Dermatoz yoki ekzema bilan og'rigan bemorlarda ushbu qurilmalardan foydalanish faqat vaziyatni yanada kuchaytiradi

Bundan tashqari har qanday sovutish qurilmalarida kimyoviy gaz, va boshqa birikmalar qo'llaniladi. Albatta, ularni qo'llamaslikni imkoni yo'q. Ammo, bu foydalanuvchilar uchun havf keltirib chiqarmaydi, qachonki ulardan to'g'ri foydalanilsa, nosozlik holatlarida professionallarga ishonib topshirilsa. Alyuminiy, mis quvurchalarini (trubka) sindirmaslik, ezmaslik muhimdir. Sababi, aynan shu quvurchalar ichida kimyoviy moddalar harakatlanadi. Ularni atmosferaga to'g'ridan to'g'ri chiqarish tirik organizmlarning bariga, tabiatga, azon qatlamiga zarar yetkazishi ilmiy isbotlangan. Qurilmalarning hajmiga, ishlashiga qarab kimyoviy moddalar me'yoriy miqdorda qo'llaniladi. Ishlab chiqarilganiga uzoq vaqt bo'lgan sovutish jihozlarida qo'llanilgan freonlar (R22, R12...) bugungi kunga kelib ommaviy qo'llanilmaydi, ularning o'rniga zarari kamroq yengilroq (R600a, R410A, R134a, R407C...) kabilar qo'llanilmoqda. Ko'plab mamlakatlarda R22 va R12 kabi freonlarni olib kirish taqiqlangan, bizda ham albatta, ammo kontrabanda yo'li orqali olib kirish holatlarini ko'rishingiz, va bozorlardan topishingiz mumkin. Bu moddalar inson asab tizimiga, nafas olish tizimiga va zaharlanish alomatlariga olib keladi. Konditsionerlarning isitish rejimi ham mavjud. Garchi konditsioneringiz qishki sharoitga moslangan bo'lsada, sovuq faslda foydalanishni maslahat bermaymiz. Havo harorati pasaygan sari uning ish unumdorligi nominaldan kamayaveradi. Konditsionerning isitish rejimidan mavsumlar almashinish oralig'ida foydalanishni tavsiya etamiz. Odatda, noyabr oylarida havo salqin, ammo markaziy isitish tizimi hali ishga tushirilmaganda konditsionerda uyni isitish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa.

Har qanday mavjudlik borki, ma'lum qonun-qoidalar asosida shakllangan va yaratilgan. Bu buyum bo'lsin, tirik organizm bo'lsin bari tizimlashgan, hatto ona tabiat ham. Ularning mavjudligi aynan bir hodisa yoki yagona elementdan emas, bir qancha bir-biriga bog'liq elementlar birikmasidir. Yuqorida keltirib o'tilgan ma'lumotlar ham bundan mustasno emas. Ularning ishlash prinsipi, ishlab chiqarish jarayoni, foydalanishlar ortida ma'lum qoidalar yotadi. «Maishiy texnika» lar mexanik, elektron, avtomatlash bosqichlarini o'z ichiga oladi. Ishlab chiqarish jarayonini avtomatlashtirish orqali bir qancha afzalliklarga erishish turgan gap. Hozirgi dunyo shiddat bilan «raqamlashmoqda». Bu texnika vositalarida katta yutuqlarga

olib keladigan jarayon. Inson omili kamayishi vaqt, mablag', sifat, qulaylik va xavfsizlik ortishi bilan o'lchanadi. Sanoat inqiloblari ham aynan texnika vositalari bilan bog'liq ekan, yuqoridagi mavzu bu fanga ham aloqador ekani bilan izohlanadi.

References:

1. https://www.yapet.ru/articles/stati_o_bitovoy_tehnike/bitovaya_tehnika_eto_chast_gizni_kagdogo
2. <https://kuhzavod-ru.turbopages.org/kuhzavod.ru/s/blog/tips/ekspertnyy-razbor-plyusy-i-minusy-vstroennoy-bytovoy-tehniki>
3. <https://daryo.uz/2022/09/08/maishiy-texnikalardan-foydalanishda-ularni-ishdan-chiqarishi-mumkin-bolgan-xatolar>
4. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
5. QARORI MAISHIY TEXNIKA MAHSULOTLARINI MAJBURIY RAQAMLI MARKIROVKALASH TIZIMINI JORIY ETISH TO'G'RISIDA

